

**O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**HALILOVA LOLA MEHRIDDINOVNA**

**NAVOIY VILOYATI CHIQINDI SUVLARI TARKIBIDAGI Co(II),  
Ni(II) IONLARINI ANIQLASHNING YANGI USULLARINI ISHLAB  
CHIQISH VA MONITORINGINI O`TKAZISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo  
03.00.10 – Ekologiya**

**KIMYO FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences**

**Halilova Lola Mehriddinovna**

Navoiy viloyati chiqindi suvlari tarkibidagi Co(II) va Ni(II) ionlarini aniqlashning yangi usullarini ishlab chiqish va monitoringini o'tkazish.....5

**Халилова Лола Мехриддиновна**

Разработка новых методов определения ионов Co(II) , Ni(II) и проведение мониторинга в сточных водах Навоийской области ..... 21

**Halilova Lola Mehriddinovna**

Development and monitoring of new methods for detecting Co(II), Ni(II) ions in wastewater of the Navoi region.....39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**HALILOVA LOLA MEHRIDDINOVNA**

**NAVOIY VILOYATI CHIQINDI SUVLARI TARKIBIDAGI  
KOBALT(II) VA NIKEL(II) IONLARINI ANIQLASHNING YANGI  
USULLARINI ISHLAB CHIQISH VA MONITORINGINI O`TKAZISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo  
03.00.10 – Ekologiya**

**KIMYO FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K619 raqam bilan ro'xtatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya vatoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)). Imiy kengash veb-sahifasi ([www.ik-kimyo.nuuz.uz](http://www.ik-kimyo.nuuz.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Smanova Zulayxo Asanaliyevna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Abdullayeva Muborak Maxmusovna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Azimova Dilbar Ortiqovna**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 va DSc.03/30.12.2019.K.01.06 raqamli kengashlar asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil « 16 » 12 soat 11<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100174 Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (99871)227-12-24, faks (99824)246-53-21; 246-02-24. e-mail:[chem0102@mail.ru](mailto:chem0102@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot- resurs markazida tanishish mumkin (N 182 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174 Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (99871)227-12-24, faks (99824)246-53-21; 246-02-24. E-mail. [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 4 » 12 kuni tarqatildi.

(2023 yil « 2 » 12 dagi N 11 raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.Sh.Daminova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi k.f.d., professor

**N.H.Qutlimurotova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi k.f.d., professor

**E.Abdurahmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH ( falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda aholi sonining ortib borishi bilan sanoat va texnikaning, qishloq xo'jaligining, kimyo sanoatining rivojlanishiga olib kelmoqda, bu esa atrof muhit obektlarida og'ir va zaharli, kanserogen metallar miqdorining oshishiga sabab bo'lmoqda. Og'ir metallar qatoriga kobalt va nikel metallari ham kirib, ular katalizator, qotishmalar, isitgichlar, korroziyaga bardoshli materiallar olishda keng qo'llaniladi, ularning atrof muhit obyektlarida ruxsat etilgan chegaraviy miqdoridan oshishi ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun uni ekologik obyektlar tarkibidan aniqlashning yangi, tanlab ta'sir etuvchan usullarini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda olimlar tomonidan suvli muhitda kobalt va nikel ionlarining ultramikromiqdorlarini tahlil qilishga imkon beradigan ko'plab fizik va fizik-kimyoviy tahlil usullari mavjud. Bularga asosan davlat standartl usullari, ya'ni atom-absorbsion va spektrofotometrik usullar kiradi. Biroq, ular har doim ham ruxsat etilgan chegaraviy miqdordan kam kobalt va nikel ionlarini aniqlash imkonini bera olmaydi. Shu sababdan avvaldan konsentrlash, undan so'ng tegishli fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlashni o'z ichiga olgan "gibrid" usullar ishlab chiqish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham kimyoviy elementlarni sorbsion-spektroskopik aniqlashning yangi usullarini yaratish bilan bir qatorda mavjud usullarni takomillashtirish orqali ularning tanlovchanligi hamda sezgirligini oshirish yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, oqava suvlarni turli shakldagi ekotoksikantlardan tozalashda kimyoviy reagentlar va adsorbsion materiallar keng qo'llanilaniib, konsentrlashni amalga oshirish uchun turli tabiiy va sun'iy materiallar, masalan seolitlar, gematitlar, alyumosilikatlar, selluloza, sintetik tola va h.k. qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini bashorat qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirish"<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Bu borada atrof-muhit obyektlarining monitoringini olib borish uchun sorbsion-spektroskopik usulda sellektivligi yuqori bo'lgan organik reagentlar bilan metall ionlarini ajratib olish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF-60-son Farmonida, 2019 yil 30 oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son Farmonida, 2018 yil 3 oktyabrdagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-3956-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni

Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi «Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida» VM-95-son qarori.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» bo'yicha ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo olimlari tomonidan kobalt va nikel ionlarining atrof-muhitga ta'sirini o'rganish va sorbsion konsentrlash usullari yuzasidan Zolotov Yu.A., G.M. Myasoedova, N.M.Kuzmin, Banerjee P., Bhattacharya P., Kosiorek M., Wyszowskiy M., Genchi G., Carocci A., Lauria G., Sinicropi M., Zhen G.H., Liu Ch.M., Sun J.M., Feng Zh., Cheng Ch., Rohilla R., Gupta U., Babuyev M.A., Amirov A.M., Panova, Y., Aubakirov, Y., Arbag, H., Batueva T.D., Kondrashova N.B., Scherban M.G., Taubayeva A.S., Dzhusupbekov U.Z., Nurgaliyeva G.O., Temel H., Posa S., Serikbaeva K.T., Kovrigina T.V., Ergozhin E.E., Chalov T.K., Nikitina A.I. va boshqalar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ular kobalt va nikel ionlarini o'simlik, hayvon va inson organizmidagi ta'sirini va turli sorbentlar yordamida konsentrlash usullarini ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda kimyoviy sensorlar va elementlarni aniqlashning test-usullarini ishlab chiqish bilan Gevorgyan A.M., Abduraxmanov E., (elektrokimyoviy usullar), Djijanbaeva R.X., Kabulov B.D., Nasimov M.A., Shesterova I.P., Turabov N.T. (optik usullar) shug'ullanishgan. Lekin kobalt(II) va nikel(II) ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash, ularni atrof-muhit obyektlarida monitoringini o'tkazishga oid tadqiqotlar kam o'rganilgan.

**Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A. 12.53 "Atrof-muhit obyektlarida ekotoksikantlarni fotometrik va sorbsion-fotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqishda polimer tashuvchilarda immobillangan reagentlar" (2015-2017), FZ-20171024243 «Kobalt va temir ionlarini aniqlashda immobillangan azoreagentlarning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish» (2018-2019) mavzusidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Navoiy viloyati chiqindi suvlari tarkibidagi Co(II) va Ni(II) ionlarini immobillangan organik reagentlar bilan sorbsion-spektroskopik aniqlash usullarini ishlab chiqish hamda tabiiy va oqova suvlarda monitoringini o'tkazish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashda selektiv organik reagentlarni tanlash va ularni tuzulishini, reagentlarni polimer sorbentlarga immobillashning optimal sharoitlarini aniqlash;

kobalt(II) va nikel(II) ionlarini immobillangan organik reagentlar bilan kompleks hosil qilish sharoitlarini hamda ularning hosil bo'lish mexanizmi va tarkibini aniqlash;

kobalt(II) va nikel(II) ionlarining imobillangan organik reagentlar bilan hosil qilgan komplekslarining barqarorlik konstantalari, mol nisbatlarini aniqlash;

kobalt(II) va nikel (II) ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash usulini ishlab chiqish va usulning aniqliligini baholash;

ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usulning atrof-muhit obyektlaridagi qo'llanishi hamda Navoiy viloyati suv havzalari va sanoat oqova suvlaridagi kobalt(II) hamda nikel(II) ionlari miqdorini monitoringini o'tkazish va ekologik jihatdan baho berish;

kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashda ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usulni amaliyotga joriy qilish sohalarini va ularning atrof- muhit obyektlariga ta'sirini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** Navoiy viloyati hududidagi tarkibida kobalt(II) va nikel(II) tutgan atrof-muhit obyektlari (sanoat chiqindi va oqava suvlar, o'simliklar, tuproq va hokazo).

**Tadqiqotning predmeti** Co(II) va Ni(II) ionlari, 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota hamda 1-(2-bridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi organik reagentlari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari** Spektroskopik (nur qaytarish, nur yutish, IQ-spektroskopiyasi), YuSSX, skanerlovchi elektron mikroskopiyasi, rentgen-fluoussent va rentgenofazaviy tahlili, kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashda 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota hamda 1-(2-bridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi analitik reagent sifatida tanlangan va ularni tashuvchilarga immobillashning optimal sharoitlari aniqlangan;

kobalt(II) va nikel(II) ionlarini 1-(2-bridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi va 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota reagentlari bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlari topilgan (pH=2,5 Ni(II) ioni uchun, pH=3 Co (II) ioni uchun);

kobalt(II) va nikel(II) ionlarini immobillangan 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota va 1-(2-bridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi reagentlari bilan hosil qilgan komplekslarining mol nisbatlari 1:1 va muvozanat konstantalari Ni(II) ioni uchun  $K=3,42 \cdot 10^9$  va Co(II) ioni uchun

$K=4,08 \cdot 10^{11}$  ekanligi aniqlangan, bu esa komplekslarning barqaror ekanligini isbotlagan;

kobalt(II) va nikel(II) ionlari uchun yangi, sezgir, ekspress bo'lgan sorbsion-spektroskopik aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

kobalt(II) va nikel(II) ionlarining atrof-muhitdagi ta'siri o'simliklar (bug'doy va jo`xori) misolida isbotlangan;

Navoiy viloyati tabiiy va oqova suvlarda Co(II) va Ni(II) ionlarini miqdorlari monitoring o'tkazilgan hamda ekologik baho berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Co(II) va Ni(II) ionlari uchun yangi, tezkor, tanlab ta'sir etuvchan va soda bo'lgan sorbsion-spektroskopik aniqlash usullari turli model, binar, murakkab aralashmalar va sanoat chiqindi suvlari namunalarida to'g'ridan-to'g'ri aniqlash va konsentrlash imkoniyati ko'rsatib berilgan;

Co(II) va Ni(II) ionlarini tabiiy va texnogen suvlarida monitoringi o'tkazilgan

Bug'doy va jo'xori o'simligining vegetatsiya davriga kobalt va nikel ionlarining ta'siri rentgen flyurossent, klassik va ishlab chiqilgan usullarda aniqlangan

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** umumiy joriy qilingan standartlar asosida o'tkazilgan, «kiritildi-topildi», qiyosiy tahlil usullari, shuningdek standart namunalardan ham taqqoslangan. Olingan natijalar matematik statistika usullari bilan qayta ishlangan, IQ-spektroskopiya, SEM (skanerlovchi elektron mikroskopiya) rentgeno -fluorescent, kabi analiz usullari bilan tasdiqlangan. Atrof-muhit obyektlarining tahlili klassik metodlar bilan solishtirilgani bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati sintez qilingan analitik reagent 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota va 1-(2-pridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi yordamida Co(II) va Ni(II) ionlarini tezkor aniqlash va analitik parametrlarini yaxshilangan sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati eritmadagi Co(II) va Ni(II) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usullarini tabiiy va sanoat chiqindi suvlari analizida qo'llanilishi ekoanalitik kimyoning muammolarini yechishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Co(II) va Ni(II) ionlarini sanoat oqava suvlari tarkibidan aniqlash va tozalashning yangi sorbsion-spektroskopik usulini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Navoiy AJ ning markaziy laboratoriya sinab ko'rilgan va Co(II) hamda Ni(II) tutgan oqova suv tahliliga tavsiya etilgan. («Navoiy AJ ning 2021 yil 19-iyuldagi 01-8/5295-son ma'lumotnomasi»). Natijada, ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul turli namunalardan kobalt va nikel ionlarini yuqori sezgirlik va tezkorlik bilan aniqlash imkonini bergan.

4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota va 1-(2-pridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi reagentlari Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida amaliyotga sinab ko'rilgan hamda tavsiya qilingan. («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ ning 2022 yil 6-dekabr 23.01-01-07/805 -son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan usul oqava suvlar tarkibidagi kobalt va nikel ionlarini aniqlash hamda samarali tozalash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari asosida 10 ta, shundan, 4 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan 2 tasi Scopus bazasida indeksatsiya qilingan, Oliy attestatsiya komissiyasining tavsiya etilgan nashrlarida 5 ta, shundan 2 tasi Respublika va 3 tasi xalqaro jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya ishning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqotning obyekt va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish ro'yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kobalt va nikel ionlarini aniqlash usullari va atrof - muhitga ta'siri (adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobida kobalt va nikel ionlarining atrof-muhitga tarqalish manbalari, ularning o'simlik, hayvon va inson organizmiga toksik ta'siri, shuningdek ularni aniqlashning fizik-kimyoviy usullari, aniqlashning sorbsion konsentrlash usullarida hamda aniqlashda qo'llanilgan turli xil reagentlar va sorbentlar haqidagi tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlarda kobalt va nikel ionlarining bir necha aniqlash usullari mavjud bo'lsada, sorbsion-spektroskopik usullari juda kam o'rganilgan.



Dissertatsiyaning «**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining sorbsion-spektroskopik aniqlashda ishlatilgan asbob-uskunalar hamda materiallar. Tajriba o'tkazish metodikasi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda qo'llanilgan asbob-uskunalar, jihozlar, reaktivlar, kobalt(II) va nikel(II) ionlarining standart va ishchi eritmalarini analizga tayyorlash metodikasi, shuningdek immobillash jarayonida qo'llanilgan 4-((2-gidroksi-3-nitroza-1-naftil)azo)benzo sulfo kislota (GNNABS) va 1-(2-piridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfo kislotaning natriyli tuzi (PAR tuzi) reagentlari, reagentlarni immobillashda qo'llanilgan PPD-1 va ipak fibroin tolali sorbentlar haqida ma'lumotlar, organik reagentlarni qattiq tolali sorbentlarga immobillash usuli, immobillangan tolaga metalning birikishi, tadqiqotda qo'llanilgan usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan GNNABS va PAR tuzi reagentlarining struktura formulalari 1- jadvalda keltirilgan.

O'zbekiston Milliy universiteti Polimerlar kimyosi kafedrasida nitron tolasi asosida sintez qilingan PPD-1ga va UrgenchTEX fabrikasining chiqindi ipak fibroin tolasiga immobillangan organik reagentlarning fizik-kimyoviy xossalari aniqlandi.


Nikel(II) va kobalt(II) ionlarini aniqlash uchun PPD-1 tolaga immobillangan 1-(2-piridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi (PAR tuzi) va ipak fibroin tolaga immobillangan 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota GNNABS reagentlari qo'llanildi.

## Organik reagentlarning tuzulish formulasi


No	Nomi	Brutto formulasi va molyar massasi	Struktura formulasi
1	4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota (GNNABS)	$C_{18}H_{11}N_3O_5S$ Mr=381	
2	1-(2-bridilazo)-2oksinaftalin-6-sulfokislotaning natriyli tuzi (PAR tuzi)	$C_{15}H_9N_3Na_2$ Mr=277	

Dissertatsiyaning «Organik reagentlarni tashuvchilarda imobillash va ular bilan kobalt(II) va nikel(II) ionlarini kompleks hosil qilishining optimal sharoitlarni tanlash» nomli uchinchi bobida kobalt (II) va nikel (II) ionlari uchun reagentlarning kvant-kimyoviy hisoblash natijalari, PAR tuzi va GNNABS reagentlarining PPD-1 va ipak fibroin tolalariga immobillanishining maqbul sharoitlari, shuningdek kobalt(II) va nikel(II) ionlari bilan immobillangan organik reagentlarning kompleks hosil bo`lish to`lqin uzunligi, vaqt, temperatura, reagent konsentratsiyasiga bog`liqligi kabi analitik tavsirlari aniqlangan.

Reagentlarning tanlangan polimer tashuvchiga va metall ionlariga aynan qaysi mexanizmlar bo`yicha kompleks birikma hosil qilishi va immobillanish jarayonlarini oldindan aniqlash maqsadida kvant-kimyoviy hisoblashlar olib borilgan. Bu usullardan foydalangan holda, kislotali muhitda reagentlarning protonlanishi natijasida elektron juftning elektrostatik tortilishi hisobiga kordinatsion bog` hosil bo`ladi. Imobillash uchun tanlangan reagentlar bir nechta potensial markazlar tutgan bo`ladi, ular metall ionlariga yuqori elektrostatik tortishishga ega.



1.–rasm.4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota ning elektron bulut zichligi



2. – rasm. 4-((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo) benzo sulfo kislota ning ESP (elektrostatik potensial) taqsimlanishi

Ma`lumki, reagent tarkibidagi sulfo guruhning elektron bulut zichligining ko`rsatkichi eng yuqoriligi, tola bilan immobillash jarayoni aynan shu sohada yuzaga kelishini bildiradi. Keyingi qiymatlar ko`rsatkichi esa  $-N=N-$  (azo guruh) va  $=CH-N=$ ,  $C-O-$  bog`lariga tegishli bo`lib, metall bilan kordinatsion bog` hosil qilishi aniqlandi.

2-rasmdagi qizil sferik nuqtalar elektronga boy soha bo`lib, yuzaning minimum sohasi hisoblanadi. Havorang sferik nuqtalar elektron taqchil sohalar bo`lib, sathning maksimum sohasi hisoblanadi. Molekulararo ta`sirlashuvda elektrono-donor sifatida qatnashishi mumkin bo`lgan markazlar sifatida molekulaning sulfo guruhidagi kislorod atomini ko`rsatish mumkin.

Olib borilgan tahlillar shuni ko`rsatdiki, AFG borligi, sintez qilingan reagentlarni kobalt va nikel ionlariga nisbatan tanlab ta`sir etuvchan ta`siririni va sezgirligini oshiradi.


## 2-jadval

### PAR tuzi va GNNABS reagentlarning immobillanishini maqbul sharoitlari(m=0,2000 gr)


Tashuvchi	Reagent	pH	Yutilish maksimumi,nm	Vaqt min.	SAS (mg-ekv/g)
Ipak fibroin	GNNABS	7,0	480	35	5,54
PPD-1	PAR tuzi	7,0	450	40	5,23

2-jadvalda keltirilgan natijalarga tayangan holda, tanlangan maqbul sharoitlarda keyingi tadqiqot tahlillarida ipak fibroin va PPD-1 tolalariga mos ravishda GNNABS hamda PAR tuzi reagentlari immobillanib kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashda qo`llanildi.


Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining tanlangan reagentlar bilan kompleks hosil qilish xossalarini eritmada o`rganish uchun reagentning dastlabgi va metall ion bilan hosil qilgan kompleks birikmasining nur yutish spektrlari hamda tola, immobillangan reagent va kobalt va nikel ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining nur qaytarish spektrlari tahlil qilindi (3,4,5,6,-rasmlar).




**3-rasm. Ipak fibroin, tolağa immobillangan GNNABS reagenti va immobillangan GNNABS ning Co(II) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining nur qaytarish spektrlari**



**4-rasm. PPD-1 tolasi, tolağa immobillangan PAR tuzi va immobillangan PAR tuzi bilan Ni(II) ioni hosil qilgan kompleks birikmalarining nur qaytarish spektrlari**




**5-rasm. Co(II) ioni GNNABS bilan kompleks hosil bo'lish spektrlari 1-reagent  $\lambda=485$  2-kompleks  $\lambda=575$**




**6-rasm. Ni(II) ioni bilan PAR tuzi bilan kompleks hosil bo'lish spektrlari. 1-reagent  $\lambda=450$ , 2-kompleks  $\lambda=590$**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, immobillangan PAR-tuzi bilan nikel kompleksi eritmasining maksimal yorug'lik yutilishi 590 nm to'liq uzunligida, Co bilan GNNABS 575 nm to'liq uzunligida maksimal analitik signali kuzatiladi. Natijalarni tug'riligini isbotlash maqsadida olingan nur yutilish spektrini qattiq fazada nur qaytarish spektrlari bilan solishtirildi. Nur yutilishidagi maksimum nur qaytarish spektrida minimum bo'lib kuzatiladi. Nur qaytarish spektri natijalarini Kubelki-Munka funksiyasiga o'tkazilganda minimum maksimumga aylanadi va nur yutilish spektrini maksimum sohasi bilan bir xil bo'lib kuzatilishi aniqlandi.

Immobillangan reagentlar bilan kobalt va nikel ionlarining kompleks hosil qilish optimal sharoitlarini o'rganildi va kompleks hosil qilishi pH=1-7 oraliqda kuzatildi. Kobalt (II) ning immobillangan GNNABS reagenti bilan kompleksi uchun pH=3, nikel(II) ning immobillangan PAR tuzi uchun pH=2,5 optimal ko'rsatgich sifatida tanlandi.



**7-rasm. Co(II) ionini aniqlashning graduirovkali grafigi (Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'syunishi)**



**8-rasm. Ni(II) ioni aniqlashning graduirovkali grafigi (Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'syunishi)**

Buger-Lambert-Ber qonuni kobalt(II)ni 2,5 dan 25,0 mkg/ml gacha va konsentratsiyalar oralig'ida, nikel(II) ioni esa 4 dan 40 mkg/ml gacha 50 ml eritmada amal qiladi, bu esa metall ionlarining atrof-muhit obyektlarida aniqlash

uchun yetarli kattalik hisoblanadi (7-8-rasm). Har ikkala usulning korrelyatsion koeffitsienti 1 ga yaqinligi usulning to'g'riligini ifodalaydi.

### 3-jadval


#### Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining immobillangan organik reagentlar bilan hosil qilgan komplekslarining spektral tavsiflari

Metall	Kompleks rangi	pH	MeR	HR	$\Delta\lambda$	$C_{Me^{+2}}$ , mkg	Sendel bo'yicha sezgirlik mkg/sm <sup>2</sup>
Kobalt	Qo'ng'ir-binafsha	3	575	485	90	50	0,0029
Nikel	Qizg'ish-binafsha	2,5	580	450	130	50	0,00276


4-jadvaldan ko'rinadiki kobalt va nikel reagent kompleksini spektral tavsiflari kontrastli ( $\Delta\lambda = 90$  nm, 130 nm), Sendel qiymati bo'yicha xulosa qilish mumkinki, kobaltni aniqlash usuli yetarlicha sezgirdir.

Olingan kompleks birikmalarining tarkibiy mollar nisbatini izomolyar seriyalar usuli yordamida aniqlandi. Immobillangan GNNABS kobalt(II) ionini bilan va PAR tuzi nikel(II) ionini bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining mollar nisbati 1:1 ekanligi aniqlandi.

Tolmachov grafik usulidan foydalanib kompleks hosil bo'lish reaksiyasining muvozanat konstantasi va kompleksning haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsienti hisoblab topildi(9-10-rasm).



9-rasm. Tolmachov usulida ipak fibroin tolasiga immobillangan GNNABS reagent bilan Co(II) ionini aniqlash reaksiyasining muvozanat konstantasini topish grafigi





10-rasm. Tolmachov usulida PPD-1 tolasiga immobillangan PAR tuzi bilan Ni(II) ionini aniqlash reaksiyasining muvozanat konstantasini topish grafigi

Nikel(II) va kobalt(II) ionini uchun  $\epsilon_{haq}$  va  $K_{muv}$  larning hisoblangan son qiymatlariga ko'ra, ishlab chiqilgan usul yuqori sezgirlikka, kompleks birikma esa barqarorlikka ega:

Dissertatsiyaning «Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini immobillangan GNNABS va PAR tuzi reagentlari bilan aniqlashda spektroskopik usullarning tahlili» nomli to'rtinchi bobida GNNABS va PAR tuzi reagentlarining tanlangan qattiq tashuvchi sorbentlarning va ular o'rtasidagi

immobillash jarayonida sodir boʻlgan oʻzgarishlarni, kompleks hosil boʻlish mexanizmlarini IQ spektroskopik usulda tahlil qilindi (11-12-rasm).




**11- rasm. Ipak fibroin tolasiga immobilangan GNNABS reagentini Co(II) ioni bilan hosil qilgan kompleksi**      **12-rasm. PPD-1 tolagga immobilangan PAR tuzining Ni(II) ioni bilan hosil qilgan kompleksi**

IQ-spektrlarni tahlilida diapozonlarning maksimal holatlari, ularning intensivligi, shakli va boshqa diapozonlarga nisbatan joylashishi aniqlandi.

PPD-1 tolasining IQ-spektrlaridagi 3188, 2850, 1450, 1638  $\text{sm}^{-1}$  sohalarda –gidroksil, metil, uglerod-uglerod, azot-vodorod guruhlarga xos boʻlgan valent va defarmatsion tebranishlar kuzatildi. PPD-1 tolasiga PAR tuzini immobilangandan soʻng yangi sohalardagi oʻzgarishlarni hosil boʻldi, xususan -OH guruhga tegishli 3414  $\text{sm}^{-1}$  sohada kengayishni, 1167 -1100  $\text{sm}^{-1}$  sohada S-O ga xos oʻzgarishni, 1378-1294  $\text{sm}^{-1}$  sohada aromatik xalqaga bogʻlangan azo N=N guruhi sohadagi oʻzgarishni, 3052-3090  $\text{sm}^{-1}$  sohadagi oʻzgarishlar aromatik xalqadagi C-C bogʻlariga xos oʻzgarishlar kuzatildi. Bu oʻzgarishlar reagentning funksional va analitik guruhlarini tolagga immobilanishi natijasida yuzaga keladi. Ni(II) ionini immobilangan PAR tuzi bn kompleks hosil qilishini Ni-O bogʻlariga tegishli 728-600  $\text{sm}^{-1}$  sohalardagi valent va defarmatsion oʻzgarishlardan aniqlash mumkin. Xuddi shunday oʻxshash natijalar ipak fibroin va GNNABS reagentlarida ham kuzatildi. Immobilangandan soʻng tolada 1176, 1500, 1369  $\text{sm}^{-1}$  sohalardagi oʻzgarishlar reagentning S-O, N-O va aromatik xalqaga bogʻlangan azo guruhiga tegishliligini boʻlib, bu reagentni tolagga immobilanganini bildiradi va 645-505 $\text{sm}^{-1}$  sohalardagi valent va defarmatsion oʻzgarishlar Co-O ning immobilangan GNNABS bilan kompleks hosil qilganini isbotlaydi. Organik reagentlarning metall ionlari bilan hosil qilgan komplekslari IQ- spektrlari IQ Furʼye-spektrometr Bruker Invenio S-2021(Germaniya), «Nicolet 1S50: FTIR Grows» larda olindi.


Immobilangan tolagga birikkan metall naʼmunasini sifat va miqdoriy tarkibini skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) tahlili yordamida oʻrganildi.

Natijalarga koʻra metall ioni bilan kompleks hosil qilgan immobilangan ipak fibroin tolasida 19% Co, PPD-1 tolasida 21% Ni ionlarning mavjudligi ishlab chiqilgan usulning selektivligi va samaradorligidan dalolat beradi (13-14-rasm).




**13-rasm. Co(II) ioni tutgan ipak fibroin tolasining SEM tasviri (x2000)**

Ipak fibroin tolagga immobillangan 4((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo)benzo sulfo kislota va PPD-1 tolagga immobillangan 1-(2-piridilazo)-2-oksinaftalin-6-sulfo natriy tuzi reagentlarining metallar ionlarini sorbsiya qilishdan oldingi va keyingi holatlari 9825 Spectrum Drive, Austin, TX-78717 (USA) markali rentgeno-fluoussent spektrometrida tahlil qilindi.




**14-rasm. Ni(II) ioni tutgan PPD-1 tolasining SEM tasviri (x2000)**



**15-rasm. Ipak fibroin tolasiga immobillangan GNNABS reagentining Co(II) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasining rentgeno-fluoussent tahlili**

Ipak fibroin tolasiga immobillangan GNNABS va kobalt(II) ionini birikishidan olingan rentgen-fluoussent spektrlari natijasiga ko`ra (15-rasm) reagent tarkibida imobillash jarayoniga qatnashuvchi sulfo guruh mavjudligi sababli, aynan oltingugurt uchun yuqori intensiv sohani, shuningdek metall bilan reagent yangi kompleks birikma hosil bo`lganini kobaltga xos yuqori intensiv sohaning ko`rinishi bilan izohlash mumkin. Xuddi shunday o`xshash natijalar nikel ioni uchun ham kuzatildi(16-rasm). Har ikkala tola tarkibidagi kobalt(II) va nikel(II) ionlarining miqdoriy ulushlari mos ravishda 24,1% hamda 31,7% ni tashkil etganligi kompleks hosil bo`lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.



**16-rasm. PPD-1 tolasiga immobillangan PAR tuzi bilan Ni(II) ionining hosil qilgan kompleks birikmasining rentgeno-fluoussent tahlili**

Dissertatsiyaning «**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining sorbsion-spektroskopik aniqlash usullarining analitik qo`llanishi hamda atrof-muhit obyektlariga ta`siri aniqlash va monitoringini o`tkazish**» nomli beshinchi bobida Navoiy hududi doirasidagi chiqindi suvlari tahlili, kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashda xalaqit beruvchi ionlar ta`siri, shuningdek ushbu ionlarni ishlab chiqilgan usulda sun`iy aralashmalar, ta`biy va texnogen suvlar,

tuproq tarkibidan aniqlash, ionlarning o`simlikka ta`sirini o`rganish hamda atrof-muhit obyektlaridagi monitoring natijalari keltririlgan.

Dastlab Navoiy hududi chiqindi suvining ICP-MS tahlili asosida tarkibidagi kobalt va nikel ionlari miqdori aniqlandi. Tahlil natijasiga ko`ra Navoiazot AJ chiqindi suvining tarkibida 43 ta element bo`lib, biz o`rganayotgan ionlarning chiqindi suv tarkibidagi miqdori - kobalt ion 0,115 mg/l, nikel esa 4,543 mg/l tashkil etadi.

Co(II) va Ni(II) ionlarini aniqlashda xalaqit beruvchi ionlarning ta`siri aniqlandi. Kuchli kislotali muhitda Co(II) ionini aniqlashda  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  ionlari, Ni(II) ionini  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ , EDTA xalaqit beradi. Ammo nikel kompleksi hosil bo`lgandan so`ng, EDTA har qanday nisbatdagi miqdorida xalaqit bermaydi. Bu ekstraktni EDTA eritmasi bilan yuvish orqali xalaqit beruvchi ionlarni olib tashlashga imkon beradi. Co(II) va Ni(II) ionlariga xalaqit beruvchi ionlar qoplovchi reagentlar 0,1 M li askorbin kislotasi, tiomochevina, tartrat yordamida bartaraf qilindi va olingan natijalar asosida ionlarni aniqlashning sun`iy aralashmalar analizida qo`llanildi.

#### 4-jadval

**Immobilangan GNNABS reagenti yordamida kobalt(II) ionini ikkilamchi, uchlamchi va murakkab aralashmalar tarkibida aniqlash natijalari**  
[P=0,95; n=3]

Tahlil qilinadigan aralashma tarkibi, mkg	Topildi $\text{Co}^{2+}$ , МКГ $\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	S <sub>r</sub>
Co(10)+Ni(20)	9,81 ± 0,28	0,152	0,015
Co(10)+Cu(50)+Cr(15)	9,88 ± 0,34	0,182	0,018
Co(10)+Fe(50)+Ni(50)	9,32 ± 0,87	0,476	0,051
Co(10)+Cd(30)+Pb(50)+Cu(10)	9,14 ± 1, 52	0,826	0,090
Co(10)+Ni(30)+Cu(20)+Zn(10,0)+Cd (50)	9,07 ± 1,73	0,940	0,104

#### 5-jadval

**Immobilangan PAR tuzi yordamida nikel(II) ionini ikkilamchi, uchlamchi va murakkab aralashmalar tarkibida aniqlash natijalari** [P=0,95; n=3]

Tahlil qilinadigan aralashma tarkibi, mkg	Topildi $\text{Ni}^{2+}$ , МКГ $\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	S <sub>r</sub>
Ni(10)+Co(20)	9,91 ± 0,24	0,130	0,013
Ni(10)+Cu(50)+Zn(50)	9,85 ± 0,30	0,163	0,017
Ni(10)+Fe(20)+Zn(30)	9,82 ± 0,39	0,214	0,022
Ni(10)+Cr(50)+Hg(10)+Cd(30)	9,69 ± 0,82	0,449	0,046
Ni(10)+Co(30,0)+Cu(15)+Zn(10)+Cd(50)	9,35 ± 1,89	1,031	0,110

Keltirilgan jadvallardan xulosa qilishimiz mumkinki, barcha natijalarda nisbiy standart chetlanish 0,110 dan oshmaydi, ionlarni aniqlashda usulning to`g`riligi va qayta takrorlanuvchanligini ifodalaydi.

Navoiy hududidagi Zarafshon daryo suvi va oqova suvlari tahlil qilindi va natijalar 6-jadvallarda keltirildi.


### 6-jadval

#### Turli xil tabiiy obyektlarda kobalt(II) ionini «kiritildi-topildi» usulida aniqlash natijalari

Aniqlanadigan metall ionini	Tahlil obyektlari	Kiritildi mg/l	Topildi mg/l	$\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	Sr
Co	Ichimlik suvi	5,0	4,98	0,33	0,178	0,036
	Zarafshon daryo	5,0	5,13	1,13	0,614	0,120
	Konimex kanali	5,0	5,06	0,93	0,505	0,100
Ni	Ichimlik suvi	5,0	4,85	0,56	0,307	0,063
	Zarafshon daryo	5,0	5,05	0,97	0,530	0,105
	Konimex kanali	5,0	5,02	1,04	0,566	0,113

Jadvalda keltirilgan tahlil natijalariga ko`ra ishlab chiqilgan ipak fibroin tolasiga metall ionini konsentrlash usuli samarali va to`g`riligidan dalolat beradi.

Zavoddan chiqayotgan chiqindi suv tarkibidagi kobalt va nikel ionlarini atrof-muhit obyektlariga ta`siri bug`doy o`simligi misolida tahlil qilindi(17-rasm).



#### 17- rasm. Turli konsentratsiyadagi chiqindi suvlarda undirilgan bug`doy doni natijalari

Natijalarga ko`ra yuqori konsentratsiyadagi (40%) chiqindi suvi bilan sug`orilgan bug`doy urug`ida hech qanday vegetatsiya davri kuzatilmagan. 10 va 20 % li konsentratsiyadagi suvlar bilan sug`orilgan bug`doy tanasi va ildizi juda zaif unganini kuzatdik. Bug`doy doni tuproq tarkibidan qancha miqdordagi kobalt ionini o`zlashtirganligini aniqlash maqsadida chiqindi suv bilan undirilgan bug`doy donini (20%) rentgen-fluouressent tahlili o`tkazildi. Bug`doy donining rentgen-fluouressent tahlil natijalari ko`ra ishlab chiqarish korxonalarining chiqindi suvlari bilan undirilgan bug`doy na`munasida Cu, Fe, Mn, Cr ionlari qatorida kobalt va nikelning ham miqdori ortgan. Tahlil xulosasi ko`ra o`simlikning tuproq tarkibidan ortiqcha metall ionlarining, jumladan


kobalt va nikel ionlarining o`zlashtirishi uning vegetatsiya davriga salbiy ta`sir ko`rsatishi aniqlandi.

Kobalt va nikel ionlarining o`simlik va inson organizmida foydali jihatlari ko`p, ammo keragidan ortiqcha miqdori zararli ta`sir xususiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan ushbu ionlarning miqdorini doimiy nazorat qilish, atrof-muhit obyektlarida monitoringini o`tkazish maqsadga muvofiqdir.


**7-jadval**

**Kobat(II) va nikel(II) ionlarining Navoiy hududidagi Zarafshon daryosi suvi tarkibidagi mavsumiy miqdorlari**

Aniqlanadigan metal ion	RECHM	15.03.2022	18.06.2022	27.09.2022	17.11.2022
Kobalt(II) mg/l	0.01	0,007	0,003	0,015	0,006
Nikel(II) mg/l	0.01	0,018	0,012	0,02	0,018




**18-rasm. Kobalt(II) ionining daryo suvi tarkibidagi mavsumiy miqdori, mg/l diagrammasi**



**19-rasm. Nikel(II) ionining daryo suvi tarkibidagi mavsumiy miqdori, mg/l diagrammasi**

Kobalt (II) ionining daryo suvi tarkibidagi mavsumiy miqdori natijalariga ko`ra (18-rasm) kobalt migratsiyasi tufayli yilning yoz faslida boshqa mavsumlarga qaraganda ko`proq ekanligini, nikel(II) ionining esa elementning migratsiya xossasiga ko`ra kuz va yoz fasllarida boshqa mavsumlarga nisbatan ko`proq miqdorda bo`lishi aniqlandi(19-rasm).

Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining 2018-2022 yillar oralig`ida Navoiy hududi oqova suvlar tarkibidagi miqdori kuzatildi (20-rasm).



## 20-rasm. Navoiy viloyati hududi oqova suvlari tarkibidagi kobalt(II) va nikel (II) ionlarining miqdori (mg/l) (2018-2022)

Oqova suvi monitoring xulosasiga ko`ra nikel (II) ionining miqdori 2021, 2022 – yillarda RECHM dan biroz oshganligini, kobalt(II) ionining esa 2020-2022 yillar davomida RECHM dan biroz oshganligini kuzatdik.

Ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul DavST usullari (fotometrik, atom-absorbsion spektroskopik) bilan solishtirildi, shuningdek qayta-takrorlanuvchanligi va aniqliligini baholash uchun ikki mustaqil usul Student va Fisher me`zonlari asosida hisoblab topilgan qiymatlar bilan solishtirildi. Hisoblab topilgan qiymatlar jadval qiymatlaridan kichik ekanligi ( $F=1,218 < 2,26$ ;  $t=1,76 < 4,47$ ) usulda sistematik xatolar va usullar natijalari orasida keskin tafovutlar yo`qligini bildiradi.

### Xulosa

1. Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlash uchun, 4((2-gidroksi-3-nitrozo-1-naftil)azo)benzo sulfo kislota va 1-(2-piridilazo)-2-oksinaftalin-6-sulfo natriy tuzi analitik reagentlar sifatida tanlandi, ipak fibroin va PPD-1 tolalarini organik reagentlarga immobillash uchun optimal sharoitlar aniqlandi.

2. Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining immobillangan reagentlar yordamida kompleks hosil bo`lishining optimal sharoitlari tanlandi, kompleks hosil bo`lish mexanizmlari va tarkibi spektrofotometrik, IQ-spektroskopik, rentgen-fluouressent, skanerlovchi elektron mikroskopiya usullari bilan tasdiqlandi;

3. Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining immobillangan reagentlar bilan hosil qilgan kompleksining barqarorlik konstantalari  $K_{mCo}=3,72 \cdot 10^9$ ;  $K_{mNi}=4,48 \cdot 10^{11}$  ekanligi aniqlandi, shuningdek Me:R mol nisbatlari izomolyar seriyalar va Asmusning tog`ri chiziqli usullari yordamidada 1:1 ekanligi aniqlandi;

4. Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlash uchun sorbsion-spektroskopik usul ishlab chiqildi va DavST usullari solishtirildi. Xalaqit beruvchining kamligi, ekspressligi, nisbiy standart chetlanishning 0,025 dan oshmaganligi, sorbentlarni qayta analizda ishlatish imkoniyati bilan boshqa usullardan afzalliklarga egaligi isbotlandi hamda kobalt va nikel ionlarini aniqlashga tavsiya etildi.

5 Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul tuproq, o`simliklar, tabiiy va oqova suvlar tarkibidan aniqlashda sinab ko`rildi va ekologik baho berildi;

6. Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini atrof-muhitga ta`siri bug`doy va jo`xori o`simliklari misolida tahlil qilinib, bu ionlarning ortiqcha miqdori o`simliklar tarkibidagi moddalar almashinuvi jarayoniga salbiy ta`sir ko`rsatishi aniqlandi;

7. Ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik aniqlash usuli Navoiy hududi Navoiazot AJ va Navoiy kon-metallurgiya kombinati markaziy laboratoriyalarida sinab ko`rildi va amaliyotga tavsiya qilindi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.К.01.03 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ХАЛИЛОВА ЛОЛА МЕХРИДДИНОВНА**

**РАЗРАБОТКА НОВЫХ МЕТОДОВ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИОНОВ  
Co(II), Ni(II) И ПРОВЕДЕНИЯ МОНИТОРИНГА В СТОЧНЫХ  
ВОДАХ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ**

**02.00.02 – Аналитическая химия**

**03.00.10 – Экология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент - 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером в В2023.2.PhD/K619.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу Научного совета ik-kimyو.nuu.uz. и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziynet.uz.

**Научные руководители:**

**Сманова Зулайхо Асаналиевна,**  
доктор химических наук, профессор

**Абдуллаева Муборак Махмусовна**  
доктор биологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Яхшиева Зухра Зиятовна**  
доктор химических наук, профессор

**Азимова Дилбар Артиковна**  
кандидат биологических наук, доцент

**Ведущая организация**

Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится «16» 12 2021 г. в 11<sup>30</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.K.01.03 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская, 4, Тел.: (99871)246-07-88, (99871)277-12-24; факс: (99871) 246-53-21. e-mail: chem0102@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана за №182100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел.: (99871)246-67-71).

Автореферат диссертации разослан «4» 12 2023 г.  
(протокол рассылки № 11 от 2.12 2023 г.)

  
**Ш.Ш.Даминова**  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.х.н., профессор

  
**Н.Х.Кутлимуротова**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.х.н., профессор

  
**Э.Абдурахманов**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор



## **ВВЕДЕНИЕ ( аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** С ростом численности населения в мире происходит развитие промышленности и техники, сельского хозяйства, химической промышленности, что приводит к увеличению количества тяжелых и токсичных, канцерогенных металлов в объектах окружающей среды. К тяжелым металлам относятся также металлы кобальт и никель, которые широко используются при получении катализаторов, сплавов, нагревателей, коррозионностойких материалов, превышение предельно допустимых количеств, которых в объектах окружающей среды негативно сказывается на экосистеме, поэтому создание новых, избирательных методов их определения из объектов окружающей среды имеет важное практическое значение.

В мире существует множество физических и физико-химических методов анализа, позволяющих ученым проводить анализ ультрамикрочастиц ионов кобальта и никеля в водной среде. В основном это атомно-абсорбционные и спектрофотометрические методы, указанные в государственных стандартах. Однако эти методы не всегда позволяют обнаружить ионы кобальта и никеля в количестве, меньше допустимого предела. По этой причине научное значение приобретает разработка «гибридных» методов, предполагающих сначала концентрирование, а затем определение соответствующими физико-химическими методами.

